

**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARDA ATROF-MUHITGA IJOBIY
MUNOSABATNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY- PSIXOLOGIK
VAZIFALARI**

Muxammadiyeva Nodira Ismoilovna

Qashqadaryo viloyati Yakkabog‘ tumani 83-maktab maktabi psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini atrof-muhitga ijobiy munosabatda tarbiyalash shakllarining asosiy yo‘nalishlari, usullari berilgan.

Kalit so‘zlar: ekologiya, ekologik tarbiya, ekologik ta’lim, ekologik munosbat, shakllantirishdagi texnika, usul, uslub, atrof-muhit.

KIRISH

Mamlakatimizda mavjud aksariyat maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni tabiat va atrof-muhit bilan tanishtirish mashg‘ulotlari tashkil qilinganligi e’tiborga molik. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, «Eng muhim masala – aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur. Albatta, bunday muammolarni faqat ma’muriy yo‘l bilan hal etib bo‘lmaydi, bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat, unga daxldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin».

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida atrof-muhitga ijobiy munosabatni shakllantirishning asosiy yo‘nalishi – aniq-obrazli tafakkurdan mavhum-mantiqiy tafakkurga o‘tish hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida atrof-muhitga ijobiy munosabatni shakllantirish jarayoni dastlab bilishning hissiy bosqichida sodir bo‘ladi.

Ya’ni bola atrof muhit haqida dastlab 5 ta sezgi a’zo orqali tasavvurga ega bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida atrof-muhitga ijobiy munosabatni shakllantirishda tafakkur shakllari ham ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida atrof-muhitga ijobiy munosabatni shakllantirishda tasniflash, taqqoslash, o‘xshatish, sintez, mavhumlashtirish, umumlashtirish, tizimlashtirish yordamida amalga oshiriladi. Shunday qilib, o‘quvchilarda atrof-muhitga ijobiy munosabatni shakllantirish to‘g‘risida doimiy qayg‘urishga yo‘naltirilgan o‘quv faoliyatini tashkil etish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Afsuski bugungi kunda biz kundalik ishlarga va tashvishlarga berilib, tirik va jonsiz tabiat dunyosi abadiy emasligini, unga insoniyat tomonidan ko‘proq zarar ko‘rsatayotganligini bevosita his qilmayapmiz. Bu jarayon albatta bolalikdan ta’lim va tarbiyani uzviyilagini ta’minlash asosida olib borilishi lozim. Bundan kelib chiqadiki, ekologik ta’limning asoslari hatto maktabgacha yoshda bolalar ongi va ruhiyatiga

singdirib borish dolzarb hisoblanadi. Shu o'rinda ekologiya so'zining etimologiyasiga to'htalib o'tsak.

Zero, atrof-muhitni bolaga ta'siri juda katta. Chunki har kuni bolalar u yoki bu shaklda atrof-muhitdagi turli narsalar yoki hodisalar bilan aloqaga kirishadilar ya'ni ular qushlarni, hasharotlarni, hayvonlarni, qishda, qor parchalarini, kuzda, sarg'aygan barglarni, yomg'irni kuzatishadi, tabiat haqidagi she'rlar va hikoyalarni tinglashadi. Va tabiat hodisalari, o'simliklarga g'amxo'rlik qilishni o'rganadilar. Tabiat bolalarni birinchi navbatda o'zining go'zalligi, ranglarining yorqinligi, xilma-xilligi bilan o'ziga jalg qiladi. Shu boisdan «Ekologik tarbiya mактабгача yoshda, maktab davrida, maktabdan keyingi, mahalla, mehnat jamoasi hamda keksalik davrida turlicha mazmun, shakl va metodlar hamda yondashuvlarda amalga oshiriladi» Bolalar birinchi aniq bilim va tajribani ham shu tabiatdan oladi.

Atrof-muhit bilan bunday aloqa, bir tomondan, bolaning hissiy tajribasini boyitadi, boshqa tomondan, uning tasavvurini kengaytiradi va bolaning atrof-muhit to'g'risida turli savollari va qiziqishlarini paydo bo'lishiga katta yordam beradi. Bolalar odatda juda qiziquvchan, tabiat hodisalari va narsalariga katta e'tibor bilan qaraydigan bo'ladilar. Bu esa ota-onalar va o'qituvchilar uchun bolani atrof-muhit to'g'risida yanada ko'proq bilim olishlari uchun munosib shart-sharoit yaratib berishni taqozo etadi. Ota-onalar va o'qituvchilar oldida turgan bunday vazifalar jumlasiga bolalarda atrof-muhit jonli va jonsiz narsalarga bo'lган muhabbat va hurmat tuyg'usini rivojlantirish, ularning tabiat haqidagi o'z tasavvurlarini boyitish, bolaga nafaqat bilim berish balki o'z hissiyotlarini erkin ifoda etish imkoniyatini berish juda muhimdir. Shu boisdan ham boshlang'ich sinf o'quvchilarida atrofmuhitga ijobiy munosabatni shakllantirish ularni o'zlarini va atrofida sodir bo'layotgan barcha narsani to'g'ri tushunishga o'rgatadi. Bolalarning o'zi mehr va muhabbatga muhtoj. Shu bilan birga, ular barcha jonzotlarga befarq va beqiyos darajada o'zlarining mehrlarini berishga qodirdir. Qani endi ulardagi bu mehroqibatni saqlab qolishni imkoni bo'lsa. Buning uchun avvalo bolalarni tabiatda ham, odamlar orasida ham o'zini to'g'ri tutishga o'rgatish lozim. Bolaning mehribon, sabrtoqatli, tinch va osoyishta bo'lib o'sishi va baxtli bo'lishi uchun biz kattalar bolalik inson hayotining muhim qismi ekanligini esdan chiqarmasligimiz kerak.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida atrof-muhitga ijobiy munosabatni shakllantirishda bolalar bilan ishslashda qo'llanilishi mumkin bo'lган ba'zi usul va metodlarni ko'rib chiqishimiz e'tiborga molik. Atrof-muhitga ijobiy munosabat nuqtai nazaridan metod - bu tarbiyachi va bolalarning birgalikdagi faoliyati usuli bo'lib, uning davomida ekologik bilim, ko'nikmalarni shakllantirish qobiliyatları va atrof-muhitga munosabatni tarbiyalash jarayoni samarali amalga oshiriladigan usuldir. Atrof-muhitga ijobiy munosabatni shakllantirishdagi texnika esa bu muayyan usulning o'ziga xos elementidir.

Atrof-muhitga ijobiy munosabatni shakllantirish usulini tashkil etadigan texnikalar qanchalik boy va xilma-xil bo'lsa, o'quv va bilim vazifasi shunchalik muvaffaqiyatli hal qilinadi. Shu boisdan ham N.J.Isakulova «Uzluksiz ta'lim jarayonida o'quvchilarga fanlararo ekologik tarbiya berishda variativ didaktik funksiyalarini quyidagilardan iborat ekanligini alohida qayd etadi:

- ekologik mazmunda mashq bajarish, masalalar yechish, diktinat va bayonlar yozishda qo'shimcha topshiriqlardan foydalanish;
- ekologik mazmundagi darslarni fanlararo bog'lanishda turli uslublarning bir nechtasidan foydalangan holda tashkil etish;
- darsdan tashqari mashg'ulotlarni o'quvchining turli qiziqishlari asosida turli uslublardan foydalanib olib borish;
- ekologik mazmundagi testlarni o'tkazishda mazmunning bir xilligiga e'tibor bergen holda savol-javoblar xilma-xilligiga erishish;
- fanlararo ekologik tarbiya berish yuzasidan o'quvchi bilimi, ko'nikma va malakalarini baholash xilma-xilligini inobatga olish. Mazkur variativ didaktik funksiyalarining har biri bajarilishida bir vaqtning o'zida har xillikka erishishga e'tibor beriladi» degan edi.

Ekologik loyihalar bolalar faoliyatining barcha turlari va barcha ta'lim sohalarini birlashtirishni o'z ichiga oladi, shuning uchun loyiha faoliyati davlat va jamiyat talablariga muvofiq yaratiladi. Zero, «...O'zbekiston boy qazilma va tabiiy resurslarga, qudratli iqtisodiy va insoniy salohiyatga ega. Biroq bizning eng katta boyligimiz – bu xalqimizning ulkan intellektual va ma'naviy salohiyatidir.”

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida atrof-muhitga ijobiy munosabatni shakllantirish jarayonidagi turli shakl va usullar bolalarning yosh xususiyatlariga qarab tanlanishi kerak. Kichik va o'rta maktabgacha yoshdagи bolalar, tabiiyki eng oddiy kuzatish usullaridan foydalanadilar va o'z tadqiqotlari natijalarini asosan rasm va qissa shaklida umumlashtiradilar. Bolalarning yoshi qanchalik katta bo'lsa, o'qituvchining yetakchilik roli shunchalik kam bo'ladi, tadqiqotning hajmi esa shunchalik katta bo'ladi.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirish juda ham murakkab jarayon hisoblanadi. Bu, bir tomondan, rasmiy mantiqning qat'iy doirasiga mos kelmasligi bilan bog'liq. Boshqa tomondan, bola doimo kattalar tabiat hodisalari, narsalarga nisbatan elementar normalar va xatti-harakatlar qoidalarini qanday buzayotganini ko'radi: daraxt shoxlarini sindirish, axlatlarni dam olish joylarida qoldirish shular jumlasidandir. Bunday hollarda, agar bola bunga e'tibor bergen bo'lsa, siz unga kattalar noto'g'ri ish qilayotganini o'z vaqtida aytishingiz kerak bo'ladi. Inson tabiat boyliklaridan oqilona va ehtiyyotkorlik bilan foydalanishi kerak, shundagina tabiat ham insonni saxiylik bilan mukofotlaydi. Shu boisdan ham bolaning ekologik madaniyatini tarbiyalashga qaratilgan barcha harakatlar kattalarni befarq qoldirmasligi kerak.

Bugungi kunda ekologik ta'lism dolzarb muammolarni hal etishda ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shu o'rinda nyega aynan bugungi kunda ekologik ta'lism va tarbiya masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda? Degan o'rinli savol tug'iladi. Odamlarning bilimsizligi atrof muhitni buzilishiga olib kelmoqda, natijada o'simlik va hayvonlarning ayrim turlari yo'q bo'lib ketmoqda, bu esa ekologik muvozanatning buzilishiga olib keladi albatta.

Ekologik ta'lism - bu ma'naviyat, aql, axloq tarbiyasi bo'lib, uni eng kichik yoshdan boshlash talab etiladi. Tabiat bolaga turli tovushlar, hidlar orqali katta ta'sir ko'rsatib uni nafaqat quvontiradi yoki hayratga soladi balki uni atrofdagi olam go'zalligi haqida tuyg'ularini tarbiyalaydi. Bolani o'z atrofidagi go'zallikni ko'rishga o'rgatish, unga jonli va jonsiz tabiat to'g'risida, sayyoramizning kelajagi bog'liq bo'lgan eng aqlli mavjudot sifatida insonning roli to'g'risida elementar g'oyalar berishdan boshlanadi. Bu jarayonda o'qituvchi oldida turgan vazifalar quyidagilardan iborat bo'ladi:

1. Axloqiy tarbiya. Yaqin atrof-muhit bilan tanishish asosida atrof-muhitga nisbatan insonparvar, emosional ijobiy, g'amxo'r munosabatni tarbiyalash aynan axloqiy tarbiya asosida amalga oshadi. Shuningdek, bu jarayonda boladagi atrofdagi olam go'zalligini ko'rish qobiliyatini tarbiyalash; tabiat ob'yektlariga nisbatan xushyoqishni rivojlantirish ham ustuvor ahamiyat kasb etadi.

2. Intellektual rivojlanish. Bu jarayonda bolalarda jonli va jonsiz tabiat haqidagi tushunchalarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, tabiatdagi munosabatlar to'g'risida elementar g'oyalarini shakllantirish; ularning ba'zi harakatlarining atrof-muhit bilan bog'liq oqibatlarini oldindan bilish qobiliyati, bolalar orasida tabiatdagи tirik mavjudotlarning ahamiyatini tushunishga yordam berish; tabiatni asrab qolish istagini tarbiyalash va agar kerak bo'lsa, unga yordam berish (jonli narsalarga g'amxo'rlik qilish) jarayoni bu intellektual rivojlanish bosqichida alohida o'rinni egallaydi.

3. Estetik hissiyotlarni rivojlantirish bosqichida tabiatning go'zalligini ko'rish va his qilish qobiliyati, unga qoyil qolish, uni asrab qolish istagi ustuvor o'rinni egallaydi.

4. Maktabgacha yoshdagi bolalarni dunyo bilan tanishtirish jarayonida tirik ob'yektlar bilan amaliy faoliyat, kuzatuvlar, tajribalar, tadqiqot ishlari va didaktik materiallar bilan ishslash orqali ekologik madaniyat asoslarini shakllantirish mumkin bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida atrof-muhitga ijobiy munosabatni shakllantirish vazifasini amalga oshirish tamoyillari quyidagilardan iborat: material hajmini bosqichma-bosqich oshirish; tabiiy muhitdan birlamchi foydalanish: bolalar bog'chasi va maktab, mahalla hududlarining yashil maydonidagi o'simliklar va hayvonlar; bolalarni sezgir taassurotlarining xilma-xilligiga, so'ngra aniq g'oyalarga,

keyin g‘oyalarni umumlashtirishga o‘tish; amaliy faoliyatning har xil turlaridan keng foydalanish; bolalarda qiziqish va ijobiy his-tuyg‘ularni uyg‘otadigan metodlardan foydalangan holda kognitiv materiallarni taqdim etish va boshqalar shular jumlasidandir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida atrof-muhitga ijobiy munosabatni shakllantirish ekologik ta’limsiz amalga oshmaydi. Masalan, sinfda tabiat burchagi yaratildi, u yerda gullarga g‘amxo‘rlik qilish paytida bolalar gullarni to‘g‘ri parvarish qilish qobiliyatiga ega bo‘ladilar, har bir gul o‘ziga xos go‘zalligi va g‘amxo‘rlikka muhtojligini bilib oladilar. Amaliy faoliyatda bolalarning individual namoyon bo‘lishi ularning ekologik tarbiyasi va madaniyati darajasining ko‘rsatkichidir. Odatda biz bolalarning e’tiborini gulzorlarga, daraxtlarga, qushlarga, yilning turli vaqtlarida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlarga qaratamiz. Bolalar o‘qituvchi yordamida kunning davomiyligi, ob-havo, o‘simliklar va hayvonlar hayotidagi o‘zgarishlar to‘g‘risida xulosa chiqaradilar. Shuningdek, bolalarda kognitiv qiziqishni rivojlantirish uchun qum, yer, loy, qor, muz, suv xususiyatlari bilan tanishish bo‘yicha muhim tajribalar o‘tkaziladi. Bunday tajriba asosida biz kuzatilgan hodisaning sababini ochib beramiz, bolalarni mustaqil fikr va xulosalar chiqarishga o‘rgatamiz. Bu jarayonda tabiiy materiallar bilan o‘yinlar tashkil etiladi. Shuningdek, sayr qilish paytida didaktik o‘yinlar o‘tkaziladi, masalan: «Mevaga nom bering», «Mavsumlar», «Ta’rifi bo‘yicha toping», «Bu sodir bo‘lganda» va boshqalar. Shamol bilan ishlaydigan o‘yinchoqlar yordamida biz shamol yo‘nalishi va uning kuchini aniqlashga harakat qilamiz. Biz o‘quvchilarda atrof-muhitga ijobiy munosabatni shakllantirishda badiiy adabiyotdan ham samarali foydalanishga harakat qilamiz.

Tabiat haqidagi badiiy-falsafiy g‘oyalalar bolalar hissiyotlariga chuqur ta’sir qiladi. Bular Xudoyerdi To‘xtabayev, Abdulla Suyumov, Tuxta Boboyev, Xakimjon Karimov, Baxodir Sarimsokov, Safo Ochil, Qozoqboy Yuldashev, Said Alimov, Askar Zunnunov, Xamidulla Boltaboyev, Tulan Nizom va boshqalarning asarlarida yorqin ifodalangan. Bolalar bilan bu badiiy adabiyot durdonalarini o‘qiganimizdan so‘ng, biz ular bilan yaqindan suhbat o‘tkazamiz, savollar beramiz. Bu suhbat asnosida bolalar atrof-muhitdagi go‘zallik, quvonchni, zavqni ifoda etadilar.

Bolalarga g‘amxo‘rlik va muhabbat namoyon bo‘ladigan savollarni berishlari juda yoqimlidir: «Uni kimdir qutqarmaydimi?», «Va ular muzlab qolmaydimi?», «Nega unga hech kim yordam bermadi?» kabi savollar orqali biz bolalarga ishning mazmunmohiyatini yetkazishga harakat qilamiz. Guruh bolalarga ma’lum bo‘lgan «Ona vatan tabiatining bilimdonlari», «Tabiatni asrang», «Qushlar kuni» viktorinalarini, intellektual o‘yinlarini o‘tkazish ham bu jarayonda muhim hisoblanadi.

XULOSA

Shuni aytish mumkinki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida atrof-muhitga ijobiy munosabatni shakllantirishda bayramlar va tadbirlarning roli katta. Bu kabi

bayramlarda tanish bo‘lgan musiqa asarlari, she’rlarni yodlash va yang‘ilarini yaratish juda muhimdir. Bolalarga ekologik ta’lim berish bo‘yicha ota-onalar bilan ishlashda an’anaviy shakllardan foydalanilanish o‘rinlidir (ota-onalar yig‘ilishlari, konsultasiyalar, suhbatlar). Bunda quyidagilarga alohida e’tibor qaratish muhim: «Daraxt eking», «Qushlarga yordam bering», «Ona Vatan tabiatini asraylik». Bunday aksiyalarda bolalar ota-onalari bilan birgalikda faoliyat olib borish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bolalar uchun ota-onalarining o‘rni va tabiatiga munosabati juda muhimdir. Shunday qilib, kompleks yondashuvni muvaffaqiyatli amalga oshirishning eng muhim sharti - bu kattalar shaxsiy namunasi bilan bolalarga tabiatga to‘g‘ri munosabatni namoyish etadigan va o‘z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda tabiatni muhofaza qilishda faol ishtirok etadigan muhitni yaratishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. - T.: O‘zbekiston, NMIU, 2018. – B. 570
2. Shavkat Mirziyoyev. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. – B. 13. 2016. – B. 13. 3. Ismoilov A., Axadov R. Ekologik ta’lim-tarbiya. – T.: «O‘qituvchi», 1997. -18-b.
3. Isakulova N.J. Uzluksiz ta’lim jarayonida o‘quvchilarga fanlararo ekologik tarbiya berish nazariyasi va amaliyoti. Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertasiya avtoreferati. – Toshkent.: 2012. –B.17.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 5 jildli. 5-jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – B.25
5. Isaqulova N.J. Ekologik tarbiyaga oid tushunchalarni shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari. // Узлуксиз таълим тизимида инновацион педагогик технологиялар. Мақолалар тўплами.– Т.: «Extremum press», 2010. –B.40.